



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



8. Усмонова. Ш. Лингвокултурология. – Тошкент: “Университет”. 2014, 16-бет
9. Википедиа.уз
10. www.ziëyuz.com кутубхонаси
11. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 1-китоб. -Т.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.
12. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 2-китоб. -Т.: ЎзКПМК, 1981. - 312 б

ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSI VA ZAMONAVIY TA'LIM

Abdumurod Tilavov,

filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU dotsent
a.tilavov@mail.ru

Annotatsiya. *So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy asarlarini ta'lim muassasalari va o'qitishda samarali natijalarga erishish uchun adabiyot muallimi qanday usullardan foydalanishi kerak? Shoir ijodini o'quvchilarga yetkazishda o'qituvchidan qanday bilim va malaka talab etiladi? Alisher Navoiy ijodida tasavvufning o'rni qanday? Shoirning tasavvufga doir tasavvurlari qaysi asarlarida badiiy ifodasini topgan? Mazkur maqolada shu kabi savollarga imkon qadar javob olinadi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, hikmat, shohbaytlar, tasavvuf, rizo ahli, odob-axloq, zuhd, zikr, ishq, oshiq.*

Hazrat Navoiyni o'qish o'zlikni anglashga yordam berar ekan, “Bu ma'naviy merosdan o'quvchilarni, xususan, yoshlarni ko'proq bahramand etish uchun qanday yo'l tutish kerak?” degan savol paydo bo'ladi. Bu o'ta dolzarb muammo yechimi uchun quyidagilarni taklif etamiz.

Birinchidan, maktab, litsey, kollejlarda Alisher Navoiyning hikmatlari mavzularga ko'ra tadrijiy tarzda o'qitilishi, imkon doirasida yodlatilishi lozim.

*Kimki falak sori otar toshini,
Tosh ila ozurda qilar boshini.*

*Kimgaki bir rishta yeturding ziyon,
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.
(Zulmning zarariga doir)*

*Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.*

(Adab bo'lmasa, oltinning jarangidan nima foyda? Kishining adabi uning boyligidan yaxshiroqdir.)

*(Odob-axloqqa doir)
Kular yuz ila ato, saxo ustiga saxo.*

*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q.
(Xayr-saxovat, oliyjanoblik haqida)*

Ikkinchidan, mutafakkir adibning tafakkur salohiyatini, badiiy mahoratini namoyon etuvchi fikriy kashfiyotlarni alohida tushuntirish kerak. Bir necha misol

Gar xayolim ko'z dadur, ko'z uyi go'yo Ka'badur —

Kim, turib atrofida kipriklarim aylar namoz.

Bu baytda shoir inson ko'z qorachig'ini Ka'baga, kipriklarni Ka'ba atrofida ibodat qilayotgan jamoatga qiyos qilib, ajoyib kashfiyot taqdim etmoqda.

Dardga chiday olmagan toshning yig'lashi haqidagi ushbu satrlar ham Navoiyni o'rganayotgan o'quvchini befarq qoldirmasligi tayin:

Qatra qonlarkim tomar ko'ksimga urgan toshdin,

Zahmdindir demakim, qon yig'lar ahvolimga tosh.

Yorning og'iz ochmay, oshiqning holini so'ramaganining sababini bayon etuvchi ushbu baytning birinchi misrasi, avvalo, savol tariqasida o'quvchilarga berilib, ular o'z javob variantlarini aytgach, Navoiyning javobi aytilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi:

Yor og'iz ochmasg'a dardim so'rg'ali topdim sabab,

Ko'p chuchuklikdin yopishmushlar magar ul ikki lab.

Beg'ubor, pok sevgi-muhabbatning samimiy badiiy ifodasi bo'lmish ushbu misralardan zavqlanmaslik mumkin emas:

Bo'lsa ikkimizning yuzimiz aksi su(v)da paydo,

Ul su(v) ne taraf yetib borsa, ochilur guli ra'no.

Uchinchidan, Navoiy g'azallariga yozilgan muxammaslar ham bu muazzam nazmdagi ma'nolar olamini kashf etishimizga yordam beradi.

Tut g'animat, bo'lmag'il sen vaqti mehmondin malul,

Andag'i yetgan senga andak parishondin malul,

Xasta bo'lganlar bo'ladur dog'i hijrondin malul,

Ey ko'ngul, bu nav o'lubman ahli davrondin malul,

Kim, erurman kimki andin yaxshi yo'q, andin malul.

Hattoki, eng yaxshi, deb bilingan odamdan malolangan shoirning dardini, holini tasavvur qilish, anglash mumkin.

To'rtinchidan, shoir ijodidagi tasavvufiy timsollar, irfoniy ma'noni anglash uchun tasavvuf haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish lozim. Adabiyot o'qituvchilari bu borada filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilovning "Tasavvuf", Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tasavvuf haqida tasavvur", Muhammad Nurulloh va Umar Foruq Jazariylarning "Tasavvuf sirlari" kitoblariga murojaat qilishlari mumkin.

Hazrat Navoiyning aksariyat fikr-qarashlari tasavvuf g'oyalari bilan bog'liqligi, hatto o'zlari ham bu ta'limotning nafaqat nazariyotchisi, balki ixlos bilan ergashgan amaliyotchilaridan ekanligi sir emas.

Nazarimizda, Navoiy o'qirmanlariga aynan Hazrat Navoiy bilgan, idrok etgan va amal qilgan tasavvuf haqidagi tasavvurlarni taqdim etish kerak. Bu borada adabiyot muallimiga birlamchi manba shoirning "Birovga musallam tariqi tasavvuf..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azalidir:

Birovga musallam tariqi tasavvuf,

Ki, zotida mavjud emasdur taxalluf. (Navoiy, 2016: 256)

Ha, Hazrat Navoiy nazdida tasavvuf ahlining fe'l-atvorida, xatti-harakatida shariatga, odob-axloqqa zid hech qanday belgi bo'lmasligi zarur. Zero:

Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,

Erur istilohoti zebu takalluf...

Muhtaram ustozimiz Ibrohim Haqqul ushbu baytlar sharhida o'tmishda yashagan ulug' mutasavvuflarning yuqoridagi bayt mazmun-mohiyatini tushunishimizga yordam beradigan go'zal ta'riflarni keltiradilar: "Kattoniy "Tasavvuf – bu axloq demak. Axloqan kim sendan ilgarilasa, tasavvufda ham ilgarilagan bo'ladi".

Abu Usmon al-Mag'ribiyga ko'ra esa, "Yaxshi axloq Allohdan rozi bo'lmoqdir" (Ibrohim Haqqul: 73).

"Tasavvuf sirlari" kitobida esa bu fikrlarning xulosasi o'laroq quyidagilarni o'qiymiz: "Tasavvufning inson hayoti bilan bog'liq tomoni – insonning ichki dunyosini razolatdan tozalab, uni fazilat va go'zal axloq bilan bezamoqlikdir.

G'oyasi esa – inson qalbi va ruhiga Allohga intilish tuyg'usini joylashtirishdan iboratdir" (Jazariy, 2000:14)".

Hazrat Navoiy:

Aysh, Navoiy necha dilkashdurur,

Lek adab birla hayo xushdurur.

Deganda ham inson hayotida odob va hayoning ahamiyatiga urg'u berganlar.

Navoiy tasavvuridagi tasavvuf – riyodan, kibrdan, xo'jako'rsinlikdan batamom xoli zuhd-u taqvodir:

Tasavvuf emas zuhdu taqvoyu toat,

Ki, anda riyo yo'l topar betavaqquf.

G'azal so'ngida Hazrat Navoiy bu boradagi fikrlarini umumlashtirib, tasavvuf (tariqat yo'li)ga quyidagicha ta'rif beradilar:

Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin,

Navoiy, muni bil tariqa tasavvuf.

Tasavvuf arboblari tomonidan tasavvufning zoti rohilasi – yo'l ozug'i, madori sanalgan zikr uch martabali, deya bildiriladi.

Birinchi martaba – "Alloh" deyish – shariat.

Ikkinchi martaba – "Alloh" deganda zavq olmoq – tariqat.

"Alloh" deya olmaslik – haqiqat; zikrning so'nggi – uchinchi martabasi – zikrni tashlab qo'yish.

Ajib hol, shunday emasmi?!

Ha, zokir shunday holga keladiki, "U O'zini zikr etmoqda, menga yo'l bo'lsin...", deya boshlaydi. Bu shundayin qurbat – yaqinlik holiki, ta'riflash imkonsin.

Ha, siz saroy tashqarisida turib "Shohanshohim, ko'p yashang!..." deyishingiz mumkin, ammo, huzuriga kirganingizda lom-mim deya olmay qolasiz...

"Alloh" deya olmaslik ham – zikr sizni yetkizib kelgan so'nggi nuqta.

Bu fikrlardan so'ng Hazrat Navoiy dostonlaridagi oshiqning holatini, hushdan ketishga oid lavhalarni anglash, mavzuga doir quyidagi shohbaytlarini tahlil etish nisbatan osonroq kechadi:

Mosivalloh, xotirimdin salb qil,

Anda zikringni huzuri qalb qil

Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur mango,

Buki yoding birla jon bersam kifoyatdur mango. ("Mezon ul-avzon"dan)

Hazrati Navoiyning ayrim baytlarini sharhlay bilish oyat, hadis mazmunidan boxabar bo'lishlikni taqozo etadi. Binobarin, adabiyot o'qituvchisi bu xususni e'tiborga olmog'i maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Kahfi baqo ichra alar bo'lsa gum,

Men ham o'lay "robi'uhum kalbuhum", –
misralarini "G'or sohiblari" qissasidan xabardor bo'lmagan o'qituvchi o'quvchilarga tushuntirib berishi qiyin.

Ushbu ruboiyni esa ta'bir joiz bo'lsa, "Allohning rahmatidan umid uzmangiz" (Zumar, 53) mazmunidagi muborak kalomning she'riy sharhi deyish mumkin:

Ahbob dengizki: xonu mondin tama uz,

Ne xonu mon, jonu jahondin tama uz.

Ne jonu jahon, kavnu makondin tama uz,

Lek demangiz munikim: Ondin tama uz.

Hazrat Navoiy aytganlariga chin ixlos bilan amal qilgan, so'zi-yu o'zi bir komil inson bo'lganlar. Chunonchi, hikmatlarida targ'ib qilinayotgan odob, saxovat, beozorlik va ko'plab insoniy fazilatlarining hayotlaridagi ibratli namunalari "Makorim ul-axloq" asarida o'z ifodasini topgan. Bizningcha, adabiyot muallimi ana shu nodir manbadan uslubiy qo'llanma sifatida foydalansa, darsning sifati yanada oshadi.

Alisher Navoiy hikmatlarining mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongiga chuqurroq singdirish maqsadida bu hikmatlarni hikoyat va rivoyatlar asosida tushuntirish samarali natija beradi. Bir misol:

Vatan tarkin bir nafas aylama,

Yana ranji g'urbat havas aylama.

Navoiyning vatanparvarlik, yurt qadri haqidagi hikmatini bayon qilayotganda adabiyot o'qituvchisi quyidagi ibratli voqeani o'quvchilarga aytib bersa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

TUMOR

"Bu voqeani institutdagi fors tili o'qituvchimiz Samig' domla hikoya qilib bergan edilar...

Afg'onistonda konsulxonada ishlagan yillarim edi. Vazifa taqozosiga ko'ra mamlakat bo'ylab yurishga ham to'g'ri kelar edi. Shunday safarlarning birida yo'limiz Shibirg'onga tushdi.

O'sha yillari viloyat anchagina noobod ekan. Asfalt yo'l nari tursin, hatto tuzukkina tosh yo'l ham yo'q.

Ulovimiz Gazik – har xil sharoitda yurishga moslashgan mashina esa-da, u ham bir daraning og'zida tiqilib qoldi. Hamrohlarimiz – mutaxassislar bilan har qancha urinmaylik, loydan chiqarib ololmadik. Mahalliy aholidan ko'mak so'rashga to'g'ri keldi. Qarangki, baxtimizga o'zbeklar ekan. Yordamlari bilan ishimiz oson ko'chdi...

Bu o'zbeklarning asli ota-bobolari O'zbekistondan bo'lib, oktyabr inqilobining zarbidan bu yerlarga kelib, o'rnashib qolishgan ekan. Aloqalar tamoman uzilib qolganligi sababidan, yurtimiz haqidagi tasavvurlari ham o'zgacha edi. Ko'p narsalar haqida hikoya qilishimizga to'g'ri keldi. Ayniqsa, Samarqand-u Buxoro to'g'risida behisob savollarga tutishdi. Javoblarimizga bir ishonib, bir ishonmay qarab turishar, ota-bobolari tug'ilib o'sgan yurt haqida deyarli tasavvurlari yo'q edi.

Ketarman bo'lib qo'zg'algan edik, bir ulug'sifat kishi to'xtatdi va so'radi:

– Birodari aziz, Vatan tuprog'idan bir ulgungiz bormi? Loaqal tavof etsak!

Birdan yodimga to'rva xaltamdagi paxta gulli chinni piyola keldi. Olib kelib tutqazdim. Oqsoqollari birma-bir qo'lga olishib, o'pib tavof qilishdi. So'ng butun boshli qavm ahli navbat bilan shu piyolada suv ichishdi.

Qavm oqsoqoli piyolani bergisi kelmay ko'ksiga bosib o'tirib, iltijoli dedi:

– Nimaga almashasiz?!

Noo'ng'ay bo'lib ketdim va bebadal shunday berishga roziligimni bildirdim. Shod bo'lishdi.

Oqsoqol kimnidir chaqirdi. Bir yigit yugurib qoshiga keldi va:

– Labbay, – dedi.

Oqsoqol unga shivirlabgina nimanidir uqtirdi. Haligi odam dasturxonga o'xshash mato yozib, ustida piyolani mohirlik bilan chil-chil sindirdi. So'ng no'xatdan katta-kichik bo'laklarni oila boshliqlarini chaqirib, taqsimlab berdi.

Bizning ajablanib turganimizga ham befarq bo'lishmadi, izohladi:

– Vatan tuprog'idan tumor yasatib, uylarimiz to'riga qadab qo'yamiz...

Vatanning naqadar aziz ekanligini ana shunda yana bir bora ravshan his etganman." ("G'aroyibot" kitobidan olindi.)

Hazrati Navoiy asarlaridagi ibratli, g'ayritabiiy, aynan yoshlar ishtirok etgan lavhalar ham o'quvchini bu ma'naviy merosga qiziqtirishning samarali usullaridan biridir.

"Nasoyim ul-muhabbat"da bunday hikoyalar ko'p. Orifa, pokdamon ayol Tilmizai Sariy Saqotiy roziyallohu anho haqidagi quyidagi voqea o'quvchini tafakkurga chorlaydi va ibratlanishiga sabab bo'ladi.

Tegirmondan omon chiqqan bola

Sariy Saqatiyning zaifa shogirdi edi. Va uning bir o'g'li bo'lib, bu bola bir muallimdan saboq olar edi.

Muallim bolani tegirmonga yubordi.

Bola tegirmonga kelib tushadigan tez oqar suv girdobiga tushib ketdi va qaytib chiqmadi. Bu voqeani Shayxga yetkizdilar. Shayx dediki: "Turinglar va men bilan yuringlar".

Onasini yoniga bordilar. Shayx nasihat va mav'iza qilib, unga sabr-u toqat tiladi.

Onasi aytdiki: "Ey Ustod, bu so'zlardan maqsadingiz nima?"

Shayx dedi: "O'g'ling tegirmon suviga g'arq bo'libdi".

Onasi dedi:

– Mening o'g'limmi?

Shayx:

– Sening o'g'ling, – dedi.

Ayol dediki:

– Batahqiqki, Tangri taolo bu ishni qilmaydi.

Shayx yana sabr qilishi kerakligi xususida unga nasihat qildi.

Ayol dedi:

– Turinglar, men bilan yuringlar.

Barchalari o'sha suv yoqasiga keldilar. Ayol unga o'g'li cho'kkan joyni ko'rsatishni so'radi. Unga ko'rsatdilar.

O'sha yerda turib:

– Ey o'g'lim Muhammad! – deb chaqirdi.

O'g'li "Labbayka" deb javob berdi. Ayol suvga kirib, o'g'lini u joydan olib chiqdi.

Shayx bu voqea hikmatini shayx Junayd Bag'dodiy quddisa sirruhudan so'radi.

Shayx Junayd dediki:

– Bu zaifa Tangri vojib qilgan barcha narsalarga amal qiladi.

Va bunday kishiga hech bir voqea va hodisa (jumladan, og'ir musibatlar) ma'lum bo'lmasdan qolmaydi, unga hodisalar xabari kelib turadi.

Bu ayolga ham o'g'lining o'limi xabari borasida (biror ishora) kelmagan edi. Shundan bildiki, o'g'li o'lmagan. Shuning uchun shayxning xabarini inkor qilib, "Tangri taolo bu ishni qilmaydur", – dedi. (Alisher Navoiy, 2025: 271)

Xullas, Hazrati Navoiyning ma'naviy xazinasidan xalqimizni qanchalik bahramand etsak, bu eng avvalo, o'zimiz uchun koni foydadir:

*Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'zunga ko'prakdurur.*

Adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. T.: "Toshkent islom universiteti", 2009. – 624 b.
2. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. T.: "Sano-standart", 2016. – 526 b.
3. Muhammad Nurulloh saydo al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b.
4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. T.: "O'zbekiston", 2017. – 452 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur.
6. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. 2-kitob. T.: "Tafakkur ziyosi", 2011. – 252 b.
7. Suyandik Mustafoyev. G'aroyibot. T.: "Sano-standart", 2015. – 160 b.
8. Alisher Navoiy. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l T.: "Sahhof", 2025. – 304 b.

ALISHER NAVOIYNING BOQIY MEROSI JAHON TILLARIDA

Rasulova Nilufar Abduvossiyevna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili amaliy
aspektlari kafedrası, v.b. dotsenti, PhD
nilufar_rasulova@inbox.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/ZMMU6659*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada A.Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tafakkur, qasida, meros, ma'rifat, devon, g'oya, ma'naviyat*

ALISHER NAVAI'S ETERNAL LEGACY IN WORLD LANGUAGES

Abstract. *This article examines the invaluable creative and scientific legacy of Alisher Navoi, highlighting his significant contributions not only to the history of our national culture and literature but also to world literature. The analysis emphasizes Navoi's impact on the development of national cultural and aesthetic thought, underscoring his enduring influence on both the intellectual and literary traditions of his time.*

Key words: *thought, qasida, heritage, enlightenment, devotion, idea, spirituality*

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur "O'zbekiston" qasidasida e'tirof etilgan ushbu misralardan, hatto, Sohibqiron Amir Temur saroyida turkiy tilni davlat tili darajasiga olib chiqish ishlari oxiriga yetkazilmay qolgan bir sharoitda ham Alisher

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502